

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA URCHITILOYOTGAN TOVUQ KROSSLARINING MAXSULDORLIK KO‘RSATKICHLARI

B.Alimbaev

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti Nukus filiali q.x.f.f.d (PhD)*

Z.Menglimuratova

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti Nukus filiali, magistr*

Annotatsiya. Ushbu maqolada ko‘rsatib o‘tilgan tovuq krosslar talablar darajasida mikroiklim va to‘laqiymatli oziqlantirish sharoitlarini yaratib berish, imkoni bo‘lgan kichik parrandachilik korxonalarida jo‘ja olish imkoniyatlariga qarab “Lomann sendiy” va “Lomann braun-klassik” tovuqlaridan foydalanish mumkin.

Kalit so‘zlar: texnologiya, kross, “Lomann Braun – Klassik”, “Lomann-sendi”, maxsuldorligi, istiqbolli, innovatsion, duragay, ratsion, sermahsul.

Kirish: O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2019 yil 18-martdagi “Chorvachilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4243 qarori, “Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezidentimizning 2021yil 3 martda chiqarilgan PQ-5017qarori parrandachilik xo‘jaliklariga o‘z xo‘jaliklarida yetishtirilib, sotilgan tuxumning har bir donasi uchun 50 so‘m hamda parranda go‘shtining har bir kilogrami uchun 800 so‘m miqdoridagi so‘mma Respublika budjetidan belgilangan edi.

Qarorga muvofiq, Respublika parrandachilikni yanada rivojlantirish uchun har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, sohaga ilg‘or texnologiyalar hamda innovatsion ishlanmalarni joriy etish, parranda mahsulotlarini qayta ishlashni chuqurlashtirish, ularning turlari va eksport ko‘lamini kengaytirish maqsadida parrandachilik sohasini rivojlantirish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilandi. Tuxum yo‘nalishidagi parrandachilik fabrikalarida tuxum etishtirish sexi xo‘jalikning asosi hisoblanib, bunda sanoat podasidagi tovuqlarning o‘rtacha yillik bosh soni bilan shu korxonaning ishlab chiqarish quvvati aniqlanadi. Barcha sexlarning kattaligi korxonaning ishlab chiqarish quvvatiga bog‘liq bo‘lib, u sanoat asosidagi tovuqlar podasi sexining bir teksda ishlashini ta‘minlashi kerak.

Yuqori sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularni O‘zbekiston Respublikasi aholisining o‘zib borayotgan ehtiyojlari bilan ta‘minlash juda ustuvor vazifadir. Ushbu muammoni hal qilishda tuxum va parranda go‘shti kabi parhezli oziq-

ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaradigan qishloq xo'jaligining erta pishib yetiladigan va intensiv sohasi sifatida parrandachilik muhim o'rin tutadi [1].

Tovuqlarni juda talabchanlik asosida podadan chiqarish ularning o'rtacha tuxumdorligini oshirishga olib kelishi mumkin, ammo bu tuxum etishtirish miqdorini kamayishiga sabab bo'ladi [2].

Tovuqlarning bosh soniga tuxum mahsuldorligini saqlash uchun jami tuxum miqdori va tovuqlarning ma'lum davrdagi o'rtacha bosh sonini bilish kifoya. Parrandalarning o'rtacha bosh soni jami parranda kunlarini kalendar kunlari miqdoriga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi [3].

Har bir tovuqning o'rtacha tuxumdorligi jami etishtirilgan tuxum miqdorini tovuqlarning o'rtacha bosh soniga bo'lishda olingan bo'linmaga teng [4].

Amaliyot va ilg'or tajribalar shuni ko'rsatdiki, "Lomann Braun – klassik", va "Lomann sendiy" krosslarini samarali xususiyatlari buning yorqin dalilidir. Tovuqlaridan yiliga o'rtacha 320-330 tuxum olish mumkin [5] ..

Tadqiqot obyekti. Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqala tumanida joylashgan, xo'jalik nomi "Nurummat Qurbanov" parrandachilik xo'jaligiga ixtisoslashtirilgan. "Nurummat Qurbanov" parrandachilik xo'jaligi 2016 yil Noyabrda tashkil qilingan, xo'jalik tuman markazidan 5 km masofada joylashgan. Parrandachilik xo'jalikning uzida ozuqalar etishtirish uchun yeri bor, barcha ozuqalar xo'jalikning uzida etishtiriladi. Xo'jalikda 2 ta tovuqxona tsexi mavjud.

Tadqiqotning maqsadi. Parrandachilik korxonalari sharoitida dunyoga mashhur krossga mansub parrandalarning xayotchangligi, mahsuldorligi va iqtisodiy ko'rsatkichlarini o'rganishdan iborat. Tadqiqotlar natijasida inkubatsiya tuxumlarining sifati, tuxumdan jo'ja chiqishi, jo'jalarning saqlanuvchanligi, o'sish va rivojlanishi, balog'at yoshi, tovuqlarning tuxum mahsuldorligi va tuxum sifati o'rganiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Parranda mahsulotlarini ishlab chiqarishda istiqbolli tavuq krosslaridan parrandachilik xo'jaliklarida foydalanishning innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish asosida ekologik toza parranda mahsuldorligi Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida ilk bor o'rganilmoqda.


1-Jadval

Tajribadagi tovuqlarning tuxum maxsuldorligi, va tuxumining vazni

Ko'rsatkichlar	Tovuqlar	
	Lomann braun-klassik n-20	Lomann sendiy n-20
Tuxum maxsuldorligi,	290,2±1,58	297,7±0,72

dona		
Tuxumining vazni, g	63,0±1,41	61,7±0,28
Tuxum massasi, kg	18,28	18,36

Jadval ma’lumotlari shundan dalolat beradiki, “Lomann Sendi” tovuqlari “Lomann braun-klassik” tovuqlariga nisbatan yil davomida 6,8 dona ko‘p tuxum bergan yoki u 2,34 foizni tashkil etadi. Tuxumning o‘rtacha og‘irligi “Lomann braun-klassik” tovuqlarida o‘rtacha 1,3 g “Lomann Sendi” tovuqlarinikidan og‘irroq bo‘lgan.



Xulosa va takliflar

1. Ellikqala tumanida joylashgan “Nurummat Kurbanov” parrandachilik fermer xo‘jaligida kichik omixta em sexi bo‘lib unda turli ozuqalar qayta ishlanib, to‘laqiyatli ratsionlar tarkibi ta‘minlanmoqda. Ushbu omixta emlar tarkibiga iloji boricha mahalliy donlar, kepak qo‘shilib, faqat ratsionni tenglashtirish uchun shrotlar, kepak va premiksalar qo‘shilmoqda.

2. Ratsionlar davrlar bo‘yicha o‘rish va rivojlantirish qonuniyatlarini inobatga olgan xolda tuzilib, unda iloji boricha arzon ozuqalardan foydalanish ko‘zda tutilgan. Tovuqlar ratsionidagi donlar energiya manbai bo‘lib, shrotlar proteinga boy bo‘lib, premiksalar aminokislotalar va vitaminlarga bo‘lgan talabni qondirgan.

3. Inkubatsiyalash shundan dalolat beradiki, ikkala kross ota-ona galasi tovuqlaridan vazn, shakl-shamoili bo‘yicha inkubatsiyaga mos tuxumlar olingan (63; 62 g). Tuxumlarning otalanish darajasi “Lomann sendiy” krossida “Lomann braun-klassik”

krossiga nisbatan 2,8 % ga yuqori bo‘lib, tuxumlardan jo‘ja ochib chiqish ham ikkinchi guruhda birinchi guruhga nisbatan 7% ga yuqori bo‘lgan.

4. Xo‘jalikda jo‘jalarga barcha sharoitlar (tenglashtirilgan to‘laqiymatli ratsionlar, kerakli mikroiqlim) yaratib berilganligi uchun jo‘jalarning saqlanuvchanligi ancha yuqori bo‘lgan.

5. O‘n kunlikda xarajatlar 1 - guruhda 1,5 %, ikkinchi guruhda esa 1,3 % ni tashkil etgan. Umuman olganda tuxumga kirish oldidan saqlanuvchanlikda guruhlar orasida katta farq bo‘lmagan. Ya‘ni parrandachilik xo‘jaliklarida jo‘jalarni o‘stirish davomida kerakli o‘stirish sharoitlari yaratib berilsa, ushbu kross parrandalarida yuqori saqlanuvchanlikka erishish mumkin.

6. Xulosa qilib aytganda tuxumdorlik va tuxum massasi bo‘yicha “Lomann Sendi” tovuqlari ustun bo‘lib, bozorda istemolchilarning oq rangdagi tuxumlarni suyib istemol qilishlari hozirgi sharoitda “Lomann Sendi” tovuqlarini urchitishni taqazo qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yildagi 13 noyabrda “Parrandachilikni yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4015 qarori

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 18-martdagi “Chorvachilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4243 qarori.

3. Raxmonov L.K. «Osnobennosti texnologii soderjaniya i kormleniya ptitsi» Jurnal «Zooveterinariya», 2012, №2, S.32-34. Toshkent, Uzbekiston.

4. Madjidov M.M., Rustamov E.X. (Agalik-Lomann-Parranda OAO SP Uzbekistan - Germaniya) «Nesushki. Rukovodstvo po soderjaniyu», 2011

5. Monik Bestman, Marko Ruis, Yos Xeymans, Kosvan Meddelkop «Signal domashney ptitsi» Prakticheskoe rukovodstvo po soderjaniyu yaichnoy ptitsi, 2016.